

2023  
30-APREL

# TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYA*

PKP | INDEX



*O'ZBEKISTON, TOSHKENT*

# “RESEARCH AND EDUCATION”

## ILMIY NASHRLAR MARKAZI



“TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARING O'RNI VA AHAMIYATI”

[www.researchedu.uz](http://www.researchedu.uz)

O'ZBEKISTON, TOSHKENT

2023/ 30-APREL

## ZAMONAVIY O'QITUVCHINING PEDAGOGIK VA LOYIHALASH MAHORATINI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI

**SH.X. Samiyeva**

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hal etadi. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishini, talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishini talab etadi.

Talabalarni seva olish, ularga o'z ota-onalaridek mehribonlik ko'rsata bilish mohir pedagogning muhim shaxsiy fazilatlaridan biridir. Murabbiy har doim, hamma vaqt talabalarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z talabasi to'g'risida shoshmashtoshharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmasligi lozim.

Murabbiyning talabalarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi, bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik esa talabalarni intizomga chaqiradi. O'z hulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lga qo'ygan o'qituvchigina haqiqiy hurmatga sazovor bo'ladi.

Murabbiy shaxsiy sifatining yana bir ko'rinishi uning shaxsiy namunasidir, darhaqiqat, murabbiyning shaxsiy namunasi talaba uchun hayot darsligi vazifasini o'taydi. Shaxsiy namuna o'z ishiga bo'lgan munosabatda, talabalarni tushunish,

hurmat qilish, talabning me'yorda bo'lishida namoyon bO'ladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi har qanday pedagogik jamoadagi munosabati bilan belgilanadi. Ayrim xollarda eng yaxshi deb, yoki eng yomon deb tushunilgan talabalarimiz teskari bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi sinchkov, ziyrak, chidamli, sa6r-toqatli, o'zini tuta biladigan, hayrixoh, muntazam o'z hissiyotini, faoliyati, hulq-atvorini nazorat qila oladigan kishi bo'lishi lozim. Shundagina ish ham, tarbiya ham unumli bo'ladi. Munosabatda g'armxo'rlik, hulq-atvorda vazminlik og'ir-bosiqlik hozirgi davr o'qituvchisining muhim shaxsiy sifatlaridan biridir.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini uning kasbiy xususiyatlari to'ldirsa, u kasbiy mahorat pillapoyalari sari yana ilgari odimlaydi. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek o'qituvchi kasbiy mahoratini uning bilimdonligi, pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligi, erudutsiyasi, ijodkorligi, talaba-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topishi kabi malakalar tashkil etadi.

Haqiqatdan ham hayotda turli xil murabbiylarni uchratamiz. Ba'zilari bolalarni joni dilidan ortiq sevadi, biroq bilimi sayoz, ba'zilari chuqur bilimga ega bo'lsada bolalar bilan muomala qilishni bilmaydi, ba'zilarida ikkala fazilatdan ham yetarlicha mavjud.

O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf - odat mezonlaridan saboq beradi. Talabalar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. O'qituvchi bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib oladi. Afsuski, ammo hamma o'qituvchilar ham bolalar nazarida shunday bo'lib qolmaydi. O'zining qo'pol muomalasi bilan talabani o'qishdan sovitib, dilini ranjitudigan o'qituvchilar ham uchrab turadi, albatta.

Zamonaviy, ideal o'qituvchida bizning fikrimizcha, quyidagi xislatlar mujassamlashgan bo'lishi lozim:

- umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o'rin egallaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi - "Avesto" kitobida ezgu fikr, yaxshi so'z va yaxshi ishlar insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi. Islom

ta'limotida boshqalarga yaxshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lishi kerakligi tushuntiriladi.

- umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi. Kishining o'z burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida bilinadi. Burchga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko'rsatadi.

- shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining rag'batiga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalarga ko'proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil yetadi.

- kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiyligiga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Kishi o'z mehnatining qadriga yetishi, u bajarayotgan ish jamiyatda ahamiyatli ekanligini tushunishi lozim. Kishining umumiyligiga qo'shayotgan hissasining salmog'i, u qaysi vazifani bajaryotganligida emas, balki o'z ishini qanchalik yaxshi, sidqidildan bajarishiga boliq. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xul-atvoriga bog'liqdir.

- vijdon kishining o'z hatti - harakati, qilmish, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usidir. U diyonat, insof, halollik, sofdillik degan ma'nolarni ham bildiradi. Abdulla Avloniy: "Vijdon ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyotdan iborat ma'naviy quvvat ga aytildur" deb ta'rif bergan yedi . Uning fikricha vijdon kishining fe'l-atvori va harakatlarining yaxshi va yomonligini, foydali yoki zararligini ko'rsatadi.

- o'qituvchining professional axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatlilik bo'lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Talabalar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

- bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik - o'qituvchining muhim axloqiy fazilati, ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlar insonning munosabatlarini go'zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo'ladi va to'la qondirilishi mumkin. Lekin ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy boyliklar singari cheksizdir. Kishi yaratgan ma'naviy boyliklarini qanchalik ko'p o'zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo'ladi.